

NATIONWIDE PROJECT "GREEN SPACE" - AS A GUARANTEE OF STABILIZATION OF THE ENVIRONMENTAL SITUATION**JAKHONGIR PULATOV**Associate professor of the pedagogical skill center of Navoi region,
doctor of philosophy in Philosophy (PhD)

Annatation: The article presents the essence of practical measures being implemented to transition to a "green economy", liberalize the economy, protect the environment, maintain the environment in good condition, and provide proposals and recommendations for their solutions.

Keywords: environment, green space, green parks, green public parks, "Green Agenda".

Annotatsiya: maqolada "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, iqtisodiyotni libireallashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, atrof-muhitni bekamu ko'st saqlash, ekologik muzanatni saqlash borasida amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati va ularning yechimlariga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, yashil makon, yashil bog'lar, yashil jamoat parklari, "Yashil kun tartibi".

Аннотация: В статье излагается суть практических мер, реализуемых для перехода к «зелёной экономике», либерализации экономики, охраны окружающей среды, поддержания её в хорошем состоянии, а также даются предложения и рекомендации по их решению.

Ключевые слова: окружающая среда, зелёные пространства, зелёные парки, зелёные общественные парки, «Зелёная повестка».

Kirish. Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik zarurati tobora ortib bormoqda. Buning sababi – turli mamlakatlar o'rtasidagi ekologik bog'liqlik kuchayib borayotganidir. Ozon qatlamining yemirilishi, atmosferaning ifloslanishi, okeanlar holatining yomonlashuvi va global haroratning oshishi kabi muammolar faqatgina ekologik jihatdan noto'g'ri siyosat yuritgan davlatlarga emas, balki butun insoniyatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, dunyoning ko'plab davlatlari ekologik xavfsizlik borasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan faol hamkorlik qilmoqda. Bu hamkorlik xalqaro miqyosda e'tirof etilgan va umumiy asos sifatida qabul qilingan prinsip va qoidalar asosida olib borilmoqda. Xususan, "...mamlakatimizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda"¹. Shuningdek, aholi punktlarida ekologik vaziyatni yaxshilash, atrof-muhitga zararli ta'sirlarining oldini olish maqsadida "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu esa, mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlashga, atrof-muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasi butun dunyo mamlakatlari olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Xususan, tabiat

¹ Mirziyoyev Sh. "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston", T.: "O'zbekiston", 2024-yil, 401-b.

resurslaridan jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida iste'mol qilish hajmining kengayishi ushbu yo'nalishga aloqador masalalarni tadqiq etishning dolzarbligini yanada oshirdi. Bu borada tabiiy atrof-muhit barqarorligini ta'minlash omillaridan biri bo'lgan ekologiyani rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar konstruktiv ahamiyat kasb etadi. ekologik barqarorlikni ta'minlashga oid qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, R.A.Islomova², O.H.Xamidov³ kabi olimlar tomonidan ekologik barqarorlikka oid masalalarni o'rgangan bo'lsa, ekologik faollik, ekologik ong, ekologik nazorat, tabiatga estetik munosabat, ekologik madaniyat va ularni shakllantirishning psixologik xususiyatlari, shuningdek yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari A.A.Axmedov, A.K.Berdimuratova, N.Sh.Bozorova, A.R.Malikova, S.Mamashokirov kabi ekolog va pedagoglar tomonidan tadqiq qilingan. Bugungi ekologik holat har bir shaxsdan tabiiy atrof-muhitni o'zlashtirish jarayonida kreativ yondashuvni talab etadi. Kreativlik (ingliz tilidan "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – shaxs ekologik huquqiy ongini yuksaltirish jarayonida duch keladigan muammolar yechimiga tezkorlik bilan tegishli qaror qabul qilish va ularning yechimi bo'yicha yuqori darajadagi yangicha ijodiy yondashuvni ifodalaydi.

Kreativ ekologik bilimlar transformasiyasi jarayonida an'anaviy yondashuv va fikrlashidan farqli ravishda shaxs ekologik huquqiy ongi samaradorligini ta'minlashga qaratilgan yangi g'oyalarni yaratish va mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligi, aniq maqsadga erishish uchun mavjud muammolarni yechimini topish va uni bartaraf etish qobiliyati shakllanganligi, tasodifan yuzaga kelgan muammolarni oqilona, tezkorlik bilan hal qilinishiga yordam beradi.

Ilmiy-texnika (texnika (techne-mahorat, san'at) – insonning moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirish vositalari, usullari majmui⁴...) taraqqiyoti jarayonida jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi aloqa tobora kengayib, ko'p qirrali va murakkab bo'lib bormoqda. XXI asrga kelib ilm-fan, texnika shu darajada rivojlandiki, yer yuzidagi deyarli butun insoniyat aql bovar qilmas yutuqlarga erishib, og'iri yengil, uzog'i yaqin, ishlab chiqarish samaradorligi rivojlangan bir davrga to'g'ri keldi. Ya'ni, hozirgi davr yadro energiyasi, quyosh energiyasi, kimyo sanoatini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, hamda fantexnikaning boshqa yanada murakkab sohalarini o'zlashtirish bilan xarakterlanadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda shakllanayotgan ekologik vaziyat, tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida fuqarolarning huquq hamda majburiyatlarini yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda fuqarolarning huquqiy ongi, ayniqsa ekologik huquqiy ongini doimiy rivojlantirib borish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Shaxsning ekologik huquqiy ongini shakllantirish jarayonini tahlil qilishda, avvalo, ushbu hodisaga daxldor asosiy tushunchalarning mazmunini chuqur o'rganish lozim. Ya'ni, "shaxs", "ong", "ijtimoiy ong" va "huquqiy ong" kabi kategoriyalar mohiyatini anglash orqali ekologik huquqiy ongning huquqiy va ijtimoiy-falsafiy asoslarini aniqlash mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, ekologik huquqiy ongni yuksaltirish bilan bog'liq

² Исломова Р. Экологик туризмни ривожлантириш муаммолари. Монография. –Т.: Иктисодиёт, 2014. –Б. 13

³ Хамидов О.Х. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш механизмини такомиллаштириш: Икт. фан. док. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2017. – 67 б.

⁴ Мамашокиров С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. –Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2012. – 192 б.

mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish – mazkur tushuncha va uning shakllanishiga oid ijtimoiy-gumanitar fanlarda mavjud bo'lgan nazariy yondashuvlar va ilmiy qarashlarni tahlil qilib, umumlashtirishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu o'rinda, ekologik ong va uning ijtimoiy ong shakllari tizimida faoliyat ko'rsatishining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradigan qator farqli jihatlariga ega ekanligini ta'kidlash joiz:

Birinchidan, uning aks etish ob'ektining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadigan kompleks xarakterda ekanligi. Binobarin, ekologik nuqtai nazardan to'g'ri fikrlaydigan shaxs nafaqat tabiatning alohida hodisalarini anglashi, balki ekologik tizimni murakkab hodisa sifatida bir butunligicha aloqadorlikda ekanligini tushunishi lozim.

Ikkinchidan, har qanday tabiiy ob'ektni yoki hodisani ekologik nuqtai nazardan to'g'ri anglash, o'z navbatida, tabiatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning nafaqat yaqin kelajakdagi, balki kelgusidagi oqibatlarini ko'ra olish qobiliyatini nazarda tutadi.

Shu o'rinda huquqshunos olim I.L.Vershokning ekologik huquqiy ong tushunchasiga bergan ta'rifini keltirib o'tish lozim. Chunki mazkur masalalar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilardan farqli ravishda, I.L.Vershokning bergan ta'rif mazkur hodisaning turli jihatlarini batafsil qamrab olgan. Xususan, uning fikricha, "ekologik huquqiy ong – bu ijtimoiy ongning irodaviylik, normativlik, huquq o'rnatuvchilik va uning boshqa shakllari bilan bog'liq bo'lgan, asosiy funksional maqsadi tabiiy atrof-muhit haqidagi bilim va qarashlar, yuridik normalarning tabiiy resurslarni va tabiatni muhofaza qilish borasidagi ta'siri, ularni qo'llash amaliyotining samaradorligi, tabiatdan foydalanuvchilar va uni muhofaza qiluvchi sub'ektlarning o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlari hamda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan ekologik hodisa va jarayonlarni, ekologik huquqiy prinsiplarni va bu sohadagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni optimallashtirish shakllarida anglangan va namoyon bo'ladigan maxsus turini ifoda etadi"⁵. Shunday qilib, ekologik huquqiy ong — bu ekologik munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga oid qarashlar, g'oyalar va tushunchalarni o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. U jamiyatning tabiatga ko'rsatadigan ta'sir shakllari va uslublarini, tabiatni huquqiy himoya qilinadigan ob'ekt sifatida qabul qilishga doir munosabatlarni ham qamrab oladi. Bundan tashqari, ushbu ong mavjud ekologik-huquqiy normalarga nisbatan shaxsiy baho, huquqiy bilimlar, e'tiqodlar, fikrlar va ekologik sohadagi istak va intilishlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda ekologik salohiyatidan samarali foydalanish hamda uni keng jamoatchilik orasida ommalashtirishda ekologik jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan ekologik jamoat tashkilotlarini quyidagi mezonlarga asosanib tasniflash mumkin:

- A'zolik soni bo'yicha – kichik yoki yirik jamoat birlashmalari;
- Hududiy faoliyat doirasiga ko'ra – butun mamlakat miqyosida yoki faqat mahalliy hududda faoliyat yurituvchi tashkilotlar;

⁵ Вершок Л.И. Об экологическом правосознании // Государство и право, 2003. – №3. – С.42.

- Ko'tarilayotgan ekologik muammolar miqyosi jihatidan – global darajadagi yoki faqat lokal (mahalliy) muammolar bilan shug'ullanuvchi;
- Faoliyat sohasi bo'yicha – tor sohalarga ixtisoslashgan yoki keng qamrovli kompleks masalalarni hal qiluvchi ekologik tashkilotlar. Shuningdek, ekologik jamoat tashkilotlarining shaxslarning ekologik huquqiy ongini rivojlantirish hamda ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan masalalarni hal etishdagi ijobiy va samarali ishtirokini ta'minlash uchun ular quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida faoliyat olib borishlari maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizdagi ekologik islohotlar doirasida “Yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi O'zbekiston 2019–2030 yillarga mo'ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini qabul qildi. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: Tabiiy resurslarni asrab-avaylash: Sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish. Muqobil energiya manbalaridan foydalanish: Quyosh, shamol va biomassa energiyasidan foydalanishni kengaytirish. Iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkor vositalarni joriy etish: Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida energiya samaradorligini oshirish. Ekologik qonunchilikni takomillashtirish O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun qonunchilik ham takomillashtirilmoqda. Bu qonunlar atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni saqlash sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan. “O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash” loyihasi “O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash” loyihasi Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida amalga oshirilmoqda. Loyiha qiymati 205 million dollardan ortiq bo'lib, u 6 yil davomida amalga oshirilib boriladi. Maqsadlar qatoriga o'rmonlar hududini kengaytirish, o'rmon xo'jaliklari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, barqaror boshqaruvni joriy etish va ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish kabi vazifalarning ham kiritilganligi muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, mazkur loyihalar mamlakatimizda ekologik muammolarni bartaraf etish va aholi uchun sog'lom muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur loyihalar orqali O'zbekiston ekologik barqarorlikka erishishga va yashash sifatining yaxshilanishiga intilayotganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. “Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston”, T.: “O'zbekiston”, 2024-yil, 401-b.
2. Исломова Р. Экологик туризмни ривожлантириш муаммолари. Монография. –Т.: Иқтисодиёт, 2014. –Б. 13
3. Хамидов О.Х. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш механизмини такомиллаштириш: Иқт. фан. док. ... дис. автореф. – Самарқанд, 2017. – 67 б.
4. Мамашокиров С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. –Т.: Iqtisod-moliya, 2012. 192 б.
5. Вершок Л.И. Об экологическом правосознании // Государство и право, 2003. – №3. – С.42.